

O'RTA ASRLAR TARIXIDA YUZ BERGAN ILK IQTISODIY NAZARI

Komilova Mukarram Komiljonovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti katta o'qituvchisi

Husanova Zamira Asqarjonovna

SamISI talabasi

Annotatsiya: *Adam Smit — qiymatning mehnat nazariyasi asoschisi. U. Petti " Mehnat boyligining otasi ,yer esa uning onasi " fikrini asoslab berdi. D. Rekarδο tovar qiymatining yagona manbai ishchining mehnati bo'lib, aholing daromadlari— ish haqi , foyda foiz, rentalar shular tovarning qiymatiga asoslanadi deb takidlaydi. XVIII asrda bu 3 nazariyaning kurash olib bordi.*

Kalit soʻzlar: *iqtisodiy jarayonlar, nazariya,Adam Smit, David Rikardo, konsepsiyalar, William Petti, sanoat , mehnat, qiymat nazariyasi, siyosiy jonivor, ish haqi , pul .*

Аннотация. *Адам Смит – основатель трудовой теории стоимости. У. Петти обосновал идею, что «Труд — отец богатства, а земля — его мать». Д. Рикардо утверждает, что единственным источником стоимости товара является труд рабочего, а доходы населения — заработная плата, прибыль, проценты, рента — основываются на стоимости товара. В 18 веке боролись эти 3 теории.*

Ключевые слова: *экономические процессы, теория, Адам Смит, Давид Рикардо, концепции, Уильям Петти, промышленность, труд, теория стоимости, политическое животное, заработная плата, деньги.*

Abstract: *Adam Smit — founder of labour theory of value. W. Petti believed that labour is the father of wealth, earth is its mother. D. Rekarδο stated that the labour of the worker is the only source of commodity value and incomes of the population of the wages, profit , interest, rent, these are the goods based on the value. In XVIII century these 3 theory fought each other .*

Keywords: *economic situations, theory, Adam Smit, David Rikardo, concepts, Uilyam Petti, manufacture, labour, theory of value, political creature, salary , money.*

KIRISH

Biz o'rta asrlardagi iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish orqali iqtisodiyot faniga asos solinganligi va uni shakllanishida asos bo'lib xizmat qilganligini ko'rishimiz mumkin."Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", degan edi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, akademik I.A.Karimov. Har qanday tarixni o'rganish avvalo hozirgi kun va kelajak uchun ahamiyatlidir.Taniqli yozuvchi va adibimiz Abdulla Qodiriy aytganidek:" Moziyga qarab ish tutish xayrlidir". Shu sababli iqtisodiy ta'limotlar tarixini o'rganish katta nazariy ,amaliy va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Insoniyat o'zining ko'p yuz-ming yillik tarixi davomida katta iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Har bir davrda u yoki bu mamlakatda ayrim shaxslar (mutaffakkirlar yoki hukimdorlarlar) tomonidan shunday iqtisodiy ahamiyatga molik fikr, tushuncha , nazariya, konsepsiyalar ilgari surilgan va amalga oshirilganki, bir holda shular tufayli davlat va xalqlar ravnaq topgan, ba'zida inqirozga uchragan. Ana shu iqtisodiy

g'oyalarni har tomonlama chuqur o'rganish, tahlil etish, tadbiiq etish, ular orasidan umumbashariy ahamiyatlilarini ajratib olib, hozirgi davrga, ya'ni hayotga tadbiiq etish nihoyatda ham amaliy, ham nazariy foydalidir, chunki ularda ko'p yillik tajriba mujassamlashgan bo'ladi.

Ilk iqtisodiy nazariyalar. Iqtisodiyot baynalmilal xodisa bo'lib, uning oldida turgan vazifalar barcha xalqlar va mamlakatlar uchun bir xil, ammo ular rivojlanish davomida turlicha natijalarga erishganlar. Hozirgi davrda ham bozor iqtisodiyotining prinsiplari hamma uchun bir xil bo'lishiga qaramasdan natijalar turlichadir. XVIII asr oxirida klassik iqtisodiy maktab vakillari Adam Smit ya David Rikardo obyektiv, ya'ni inson xohishiga bog'liq bo'lmagan, lekin, ular tomonidan o'rganilishi mumkin bo'lgan qonunlar asosida amal qiluvchi xo'jalik tizimi to'grisidagi ta'limotni yaratdilar. Ularning fikricha, davlatning iqtisodiy siyosati bu qonunlarga xilof bo'lmay, aksincha, bu qonunlarga suyanishi kerak, ana shunda iqtisodiyot ravnaq topadi va aksincha. Demak, bu qonun va qonuniyatlarni bilish, ulardan amaliyotda to'g'ri foydalanish hayot talabi bo'lib bormoqda. Uzoq o'tmishdagi ko'pgina maslahatlar, hayotiy tajribalar, olimlarning fikri va g'oyalari hozirgi kunda asqotmoqda, ularni o'rganish va eng muhimi hayotga tadbiiq etish kerak. Iqtisodiyot borasida tarixda kelib chiqqan iqtisodiy taqchiliklar, inqirozlar va kamchiliklardan to'g'ri xusola chiqarib uni qaytarmaslik orqali davlatning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga erishamiz.

Kapitalistik munosabatlarning shakllanishi dastlabki kapitalning jamg'arilishi jarayoni bilan bog'liq. Adam Smitning tushunchasiga qaraganda, ko'p sonli ishlab chiqarish tarmoqlarining o'zaro bog'lanish yo'li bilan rivojida mehnat unumdorligi o'sishining sharti dastlabki kapital jamg'arilishidir. Bu jarayon obyektiv, oddiy bir voqea sifatida ta'riflanadi. Darhaqiqat, bu jarayon real tarixiy voqeadir, ammo u amalda beshafqat sinfiy kurash, aholining bir qismini iqtisodiy va ijtimoiy ezish, zo'rlik va aldov bilan bog'liq bo'ldi. Bu jarayon davomida obyektiv tarixiy qonuniyat o'ziga yo'l ochdi, natijada ishlab chiqarish nisbatan o'sdi, sanoat va savdo shaharlari ko'paydi, fan va texnika rivoj topdi. Bu uyg'onish davri bo'lib, ming yillik turg'unlikdan so'ng iqtisodiyot madaniyat va san'atning ravnaqiga olib keldi. Bundan ko'rishimiz mumkinki, davlatning iqtisodiyoti rivojlanmasdan turib, boshqa jabhalarini mukammal eta olmaymiz.

Merkantilizm nuqtayi nazaridan amaliy, aniq masalalarni yechish borasida u o'z asarlarida ro'y berayotgan voqealarni ta'riflashga ko'proq yo'l ochib bergan. Ammo iqtisodiy hodisalarni tadqiq etish davomida hodisalarning ichki mohiyatiga kirib bordi, ularni izohlashga harakat qildi, iqtisodiyotda tabiiy fan metodlarini qo'lladi, ayniqsa matematikani keng tatbiiq etdi. U o'zining tadqiqotlarida ayrim odamlarning fikri, xohishi va ehtirosiga oid barcha narsalarni chetda qoldirib, iqtisodiy hodisalarning salbiy bog'liqligini ko'rsatishga intildi. Shu yo'l bilan u iqtisodiyotda ilmiy mavhum metodni qo'llashda dastlabki qadamni qo'ydi. Shunday qilib, V.Petti iqtisodiy tahlilda statistik metod, ya'ni yangi metodologiyani qo'llay boshladi. Shunisi diqqatga sazovorki, V.Petti iqtisodiy masalalarni yoritganda tabiiy fanlar, ayniqsa tibbiyot, anatomiya matnlari va o'xshatmalaridan ustalik bilan foydalangan. U masalani yechish uchun to'g'ri yo'lni topish, "siyosiy jonivor"ning sog'ligini ta'minlash uchun faqat uning anatomiyasini o'rganish orqali hal etish mumkinligini isbotlab berdi. U merkantilistlar kabi iqtisodiy tekshirishlarni muomala sohasidagi voqealarni umumlashtirish

bilan cheklash mumkin emas, degan xulosaga keldi. U xo'jalikning asosini ishlab chigarish jarayoni hal etadi, jamiyat boyliklari moddiy ne'matlar yaratish davomida yuzaga keladi, deydi. Savdogarchilikni unumsiz kasblar qatoriga sanaydi. Pettining fikricha, ular hech qanday mahsulot tayyorlamaydilar va faqat qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlarini xuddi insondagi vena va arteriyalarga o'xshab jamiyat tanasidagi qon to'yintiruvchi sharbatlarni taqsimlagandek taqsimlaydilar. Ishlab chiqarishni xo'jalikning asosi sifatida o'rganib, bahoning tabiatini, ish haqi va yer rentasi, yer bahosi miqdorini belgilovchi sabablarni aniqlashga intildi.

XVIII asrlarning taniqli iqtisodchilaridan biri U. Petti ekanini bilib oldik. U.Pettining pulga bo'lgan munosabatini ko'rib chiqadigan bo'lsak, u qimmatbaho metall va toshlarni boshqa tovarlarga solishtirib, ular aynimaydi va o'zgarmaydi, har yerda va har qachon boylik sifatida saqlanadi, degan. Shu sababli, bunday tovarlarni ishlab chiqarish va savdo qilish kerak, chunki bu boshqa ishlab chiqarish va savdodan qulayroqdir. Shu bilan birga olim har qanday yo'l bilan oltin va kumush, ya'ni pul to'lashga qarshi edi. 1682-yilda yozilgan "Pul to'g'risida bir necha og'iz so'z" kitobi 32 ta savol va javob tariqasida Angliyada pul chaqasini qaytadan zarb etish masalasiga bag'ishlangan. Bu aslida kichik bir parcha pul nazariyasining ustuni edi. Unda Petti merkantilizmdan butunlay voz kechadi va pulni umumiy ekvivalent vazifasini bajaruvchi maxsus tovar deb hisoblaydi. Pulning qiymati ham boshqa tovar kabi sarflangan mehnat miqdori bilan aniqlanadi, almashuv qiymati esa qimmatbaho metallni qazib olishga ketgan mehnat sarflari bilan belgilanadi. Eng muhim masala, bu mamlakatdagi pulning miqdori, ya'ni oborotdagi pul masalasi edi.

Pettining iqtisodiyot sohasida olib borgan islohotlardan shuni anglash mumkinki, u qimmatbaho metall, toshlarni mamlakatdan chiqib ketishi mamlakat iqtisodiyotiga zarar keltirishi mumkinligi haqida to'xtalib o'tadi. Bu nazariyaga boshqa tomondan yondashadigan bo'lsak, bu islohot davlatni boyitishda qo'l keladi, ammo bu qisman darajada jamiyat hayotida o'zgarishlar bo'lishiga sabab bo'lishi aniqlanib kamchiliklar o'rganib chiqiladi va yangi ta'limot kelib chiqadi. Bundan ko'rinib turibdiki, har bir ta'limotning yutuqlari va kamchiliklari aniqlanadi, shu tariqa iqtisodiyot mukammallashtirib rivojlangan va rivojlanishda davom etmoqda.

Ingliz klassik iqtisodiyotining mashhur namoyandasi David Rikardo (1772-1823), Petti va Smitning iqtisodiy g'oyalarini yanada rivojlantirdi. U Londonda sohibkor dallol yahudiy oilasida tug'ildi, 14 yoshidan otasiga yordamchi bo'ldi. Ikki yil Amsterdamda (Gollandiya) savdo maktabida talim oldi. Yoshligidayoq birjadagi qulay operatsiyalar tufayli katta boylik to'pladi. Rikardo qiymat qonunini ishlab chiqishda Smitning xulosalariga garchi ularni qisman inkor etsada, tayandi va ularni takomillashtirdi. U tovarning 2 faktori: iste'mol va almashuv qiymatlarini yanada aniqroq o'rgandi (masalan, nonni yeyish va sotish mumkin). Foydalilik (iste'mol qiymati) almashuv qiymatining zaruriy sharti, ammo uning o'lchovi bo'la olmaydi. Barcha tovarlarning almashuv qiymati (ba'zi hollar bundan mustasno masalan ilgarigi rassomlarning kartinalari, noyob vino) va ularni ishlab chiqarishga ketgan mehnat sarflari va chiqimlari bilan aniqlanadi. Almashuv qiymati har doim nisbiy bo'lib, boshqa tovar yoki pulning ma'lum miqdorida o'z aksini topishi tufayli Rikardo absolut qiymat ham bo'lishi kerak, degan masalani qo'ydi. Bu qiymat substansiyasi mehnatdagi mehnat miqdoridir. Almashuv qiymati absolut qiymat ro' yobga chiqa oladigan zaruriy va yagona

mumkin bo'lgan shakldir. Lekin Rikardo bu g'oyani umrining oxirida tugallanmagan asarining "Absolut va nisbiy qiymat" bobida bergan, ya'ni fikr mantiqiy oxiriga yetkazilmagan. Marksning fikricha, Rikardo qiymatni faqat miqdoriy tekshirdi, tarixdan tashqarida o'rgandi, ya'ni mehnatni qiymat bilan yaraluvchi mahsulotning tabiiy xususiyati va bu jarayonni barcha ijtimoiy tuzumlarga xos deb o'yladi. Rikardo Smitning g'oyalarini to'ldirdi. Agar Smitning g'oyasi bo'yicha qiymat oddiy tovar ishlab chiqarishda sarflangan mehnat bilan aniqlansa, kapitalistik ishlab chiqarishda bu qiymat realizatsiya qilinadigan daromadlardan iborat edi. Rikardo qiymatni aniqlashda sarflangan mehnatdan foydalandi. Rikardo ish haqining tovar qiymatiga ta'sirini rad etdi. Masalan, deydi u, agar mehnat unumdorligi oshmay turib ish haqi ko'tarilsa, bundan tovar qiymati o'zgarmaydi. Boshqa sharoitlar o'zgarmagan holda, bu holat tovar bahosiga ham ta'sir etmasligi kerak, faqat ish haqi hamda tovar bahosidagi foyda o'rtasidagi nisbatni o'zgartirishi mumkin. Kapitalistlar erkin raqobat sharoitida ish haqi o'sishini bahoga ko'chira olmaydi va foydaning bir qismidan mahrum bo'lishga majbur. Bu qoida katta ijtimoiy-siyosiy xarakterga ega, chunki Smit ishchilarning ish haqini oshirish uchun kurash befoyda, negaki ish haqi ortsa, baholar ham oshadi, degan fikrda bo'lgan (real daromad o'zgarmaydi). Ish haqi oshganda baholar o'zgarmaydi, kapitalistlarning foyda normasi kamayadi.

Rikardo ish haqi, foyda va renta masalalarini yechishga katta hissa qo'shdi. U Smit kabi asosiy uch sinfning dastlabki daromadlari masalasiga e'tibor berdi. U mehnatni tovar deb (aslida ishchi kuchi tovar) hisoblab mehnatning bozor bahosi (ish haqi) tabiiy baho bo'ladi va shu atrofda o'zgaradi, tabiiy baho deganda ishchi kuchining qiymatini tushungan Rikardo masalaga tarixiy an'analar asosida yondashishga urinsa ham mehnatning tabiiy bahosini jismoniy minimumga tenglashtiradi. Masalan, nonning bahosi va ish haqining pul miqdori o'rtasida bevosita bog'liqlik bor,- deydi u, - agar nonning bahosi oshganda ish haqi o'zgarmasa, ishchilar och qoladi va o'limga mahkum etiladi.

Bu nazariyalar orqali yana bir muhim masala ustida to'xtab o'tish kerakki, avval yuzaga kelgan iqtisodiy g'oyalarga shu kungi o'lchovlar bilan baho beriladi va odatda ilgari g'oyadagi "xato" va "kamchilik"lar aniqlanib, yangi g'oyaning undan afzalligi "isbotlanadi". D. Rekarado, A. Smit va U. Petti larning fikrlari ham iqtisodiyot taraqqiyoti rivojlanishiga hissa qo'shishi bilan bir qatorda ulardagi kamchilik nuqsonlar ham aniqlanadi va bularga bozor iqtisodiyotining prinsiplari yechimlar topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. " Iqtisodiyot ta'limotlar tarixi" A. Razzaqov.2005
2. Yo'ldoshev Q. va Muftaydinov Q. Iqtisodiy taminotlar tarixidan (Sharq iqtisodiy tafakkuri misolida) T. 2001
3. Kobiljonovna K. M. The Effectiveness Of Methods Of Teaching Word Formation In The Aspect Of Teaching Russian As A Foreign Language //Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities. – 2024. – T. 27. – C. 32-35.
4. Kobiljonovna K. M. Application Of Ways To Increase Efficiency In Learning The Russian Language //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2024. – T. 28. – C. 12-14.

5. Qobiljonovna K. M. et al. IQTISODIYOTDA VIRTUAL VALYUTA, YA'NI KRIPTOVALYUTA SHAKLARI VA RIVOJLANISHI //SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI. – 2024. – Т. 7. – №. 1. – С. 218-222.

6. www.pdfactory.com